

“Ta’minotchi korxonada” tomonidan maxsus dasturiy mahsulot orqali hisob-faktura va to’lov hisob-varag’ini shakllantiriladi hamda iste’molchi to’g’risidagi ma’lumotlar ko’rsatilgan holda elektron raqamli imzo bilan tasdiqlanib, operator orqali rouming operatoriga yuboriladi.

(Asos: O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 25.06.2019 yildagi 522-sonli “O‘zaro hisob-kitoblar tizimida elektron shakldagi hisobvara-q-fakturalardan foydalanishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori)

3.8. Hisobga olish pribori ushbu shartnomaga 3-ilovaga muvofiq, elektr tarmoqlarining mansublik balansi bo’yicha farqlash dalolatnomasi va tomonlarning ekspluatatsiya javobgarligi asosida aniqlanadigan elektr tarmog’ining mansublik balansi chegarasida o’rnatilmaganda, chegaradan hisobga olish pribori o’rnatilgan joygacha bo’lgan uchastkada energiyaning texnologik sarflanish hajmi “Iste’molchi” bilan birgalikda hisoblash yo’li orqali aniqlanadi va ushbu shartnomaga 4-ilovaga muvofiq dalolatnomada ko’rsatiladi. Bunda, 750 kVA va undan yuqori quvvatga ulangan, tabaqalashtirilgan tarifda to’lovlarni amalga oshiradigan “Iste’molchi” uchun energiyaning texnologik sarflanish hajmi sutkaning tig’iz, yarim tig’iz va tungi paytlari uchun alohida aniqlanib, mutanosib ravishda jami olingan elektr hajmining tegishli paytlariga to’lov haqini yozish uchun qo’shib boriladi. **(6-,7-ilovalarni reaktiv quvvatga ega va texnologik bronli iste’molchilar to’ldiradi).**

3.9. Elektr energiyasi yagona elektr energetika tizimidan tranzit bo’yicha iste’molchining elektr tarmog’i orqali hududiy elektr tarmoqlari korxonasi uchun elektr tarmog’iga uzatilganda, iste’molchi tarmoqlaridagi elektr energiyasi texnologik sarfining bir qismi, iste’molchining elektr tarmog’iga kelib tushgan elektr energiyasining umumiy miqdoriga nisbatan hududiy elektr tarmoqlari korxonasi uchun elektr tarmog’iga iste’molchi tomonidan uzatilgan elektr energiyasi miqdoriga mutanosib ravishda, yagona elektr energetika tizimining elektr tarmoqlaridagi texnologik sarflarga o’tkaziladi.

3.10. Elektr energiyasi sarfi to’g’risidagi hisobot iste’molchi tomonidan taqdim etilmagan taqdirda, hududiy elektr tarmoqlari korxonasi tomonidan elektr energiyasi (shu jumladan aktiv va reaktiv energiya) iste’molining shartnomaviy miqdori bo’yicha yoki o’tgan hisob-kitob davr uchun elektr energiyasi iste’molining o’rtacha sutkalik amaldagi miqdori to’g’risidagi ma’lumotlar asosida hisob-kitob qilinadi. Bunda hisobga olish priborlari ko’rsatkichlari nazorat tartibida Ta’minotchi korxonada tomonidan yozib olingandan keyin amalda iste’mol qilingan elektr energiyasi uchun qayta hisob-kitob qilinadi. Qayta hisob-kitob iste’molchi yoki uning vakili ishtirokida yoxud uning ishtirokisiz belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

3.11. Ta’minotchi korxonada iste’molchilar bilan birgalikda iste’mol qilingan elektr energiyasining amaldagi miqdorini aniqlash uchun ulardagi elektr energiyasini xisobga olish priborlari ko’rsatkichlarini xar oyda yozib olishi va zarur bo’lganda elektr energiyasini xisobga olish priborlarini ulash sxemasini tekshirib ko’rishi kerak. “Iste’molchi” tomonidan elektr energiyasi sarfi to’g’risida “Ta’minotchi korxonada”ga belgilangan shakl bo’yicha o’z qo’li bilan, faksimil elektron yoki pochta aloqasi orqali taqdim etilgan hisobot yuridik shaxslar xamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar uchun iste’mol qilingan elektr energiyasining amaldagi xajmini aniqlash uchun asos bo’lib xizmat qiladi.